

19.04 tushgan testlar

1) O'qituvchi o'quvchilarga nutqning samaradorligini yaxshilash un aytgan gapi qaysi to'g'ri

A. So'zlayotganda intonatsiyalarga, ovozning ko'tarilish tushish ritmiga to'g'ri e'tibor bering

B. Pauzalardan qochishga harakat qiling chunki bu nutq so'zlovchining o'ziga ishonchisizligi va tayyor emasligini ifodalaydi

C) Ovozning yo'g'on ingichkaligigga e'tibor bering

D) O'zingiz uchun tinglovchini tanlay oling

Izoh: Bu gap nutqning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, chunki intonatsiya va ritm tinglovchining e'tiborini ushlab turadi va fikrni aniq yetkazishga yordam beradi.

2) O'qituvchi oquvchini past ozlashtirishiga bildirayotgan salbiy munosabati sababli oquvchining ozlashtirishi kundan kunga kamayib borganini sezdi va bu holatda oqituvchi qanday yol tutdi?

A) bilim egallashda qiyinchiliklar bolishi tabiiy holat dedi

B) ozlashtirish darajasiga qarab qoshimcha mashq berdi

C) Unga yaxshi o'qishi kerakligi haqida doimiy tanbeh berib bordi

D) O'quvchi bilan ota -onasini chaqirib ular oldida gaplashib oldi

Izoh: o'quvchi o'zlashtirish darajasiga qarab qo'shimcha mashqlar berish orqali undagi bilim kundan kunga ortib borishi mumkin

3) O'quvchilar darslikka umuman qiziqish bildirmayaptilar va undan foydalanishni xohlamayaptilar. Bu holda oqituvchi qanday vaziyatni qollaydi?

A) o'quvchilarni qiziqishlarini inobatga olib qoshimcha materiallar bilan taminlash

B) o'quvchilarga darlik bilan ishlash kerakligini tushuntirish

C) o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun uyga vazifa berish

D) mavzuni o'zgartiradi

Izoh: Agar o'quvchilar darslik bilan ishlashni ma'qul ko'rishmasa, darslik ular uchun qiziqarli bo'lmasa u holda o'qituvchi boshqa bir qiziqarli materiallar orqali mavzuni o'quvchoga yetkazib berishi zarur

4) O'qituvchi boshqa maktabda ishlaydigan o'qituvchining darsda foydalangan metodini o'zini darsida foydalandi. Kasb standartidagi o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sishning qaysi vazifa turiga kiradi?

A) Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash

B) Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni taminlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish

C)Maqsadli ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari" da qatnashish

D)O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish

Izoh:

6.1-STANDART. O'QITUVCHI BUTUN UMR DAVOMIDA TA'LIM OLISHNING MUHIMLIGINI TUSHUNADI VA KASBIY RIVOJLANISH UCHUN TURLI IMKONIYATLARDAN FOYDALANADI

Kasbiy ta'limni tugatgandan so'ng, pedagog kasbiy faoliyatni boshlash uchun zarur bo'lgan o'z malakasi va kasbiy vakolatlar darajasini tasdiqlovchi diplom oladi. Shu bilan birga, uning kasbiy rivojlanishi boshlanadi - kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish. O'qituvchi o'z bilimlariga asoslanib, amaliyotdan olingan turli vaziyatlar ustidan doimiy ravishda bosh qotiradi, o'quvchilar bilan samaraliroq ishlash uchun yana qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini baholay oladi. O'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchilik va qiyinchiliklar nuqtai nazaridan yangi ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi. Shunday qilib, yangi bilim va ko'nikmalar unga o'z ishida yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Kasbiy rivojlanish uch darajada amalga oshiriladi:

1. Ta'lim tizimi doirasida:

- malaka oshirish tizimida o'qitish, uning natijalariga ko'ra o'qituvchilarning egallab turgan lavozimi va malaka toifasiga muvofiqligini attestatsiyadan o'tkazish tartibi;
- Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkaziladigan turli tanlovlar, seminarlar, konferensiyalarda ishtirok etish.

2. Maktab darajasida:

- tajriba almashish, tajribali o'qituvchilardan o'rganish amalga oshiriladigan metodik birlashmalar ishida, mahorat darslarida faol ishtirok etish;
- hamkasblarning darslariga tashrif buyurish;
- o'zining ochiq darslarini tashkil etish, o'z pedagogik tajribasini umumlashtirish va tarqatish.

3. Shaxsiy daraja - o'qituvchilarning mustaqil ta'limi:

- zamonaviy psixologik-pedagogik usullarni o'rganish;
- pedagogik va uslubiy adabiyotlar bilan tanishish;
- internet resurslaridan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarni yaxshilash;
- nashrlarni yaratish.

O'qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirish tizimida uning mustaqil ta'limi alohida o'rin tutadi. O'zini butun umri davomida takomillashtirgan pedagoggina o'qishga o'rgatishi mumkin.

5) O'qituvchi tumandagi boshqa maktabga borib tajribali o'qituvchining darsini kuzatdi. O'rgangan bilimlarini o'z darslarida qo'lladi. Bunday holatda o'qituvchi o'z o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish kompetensiya standartining qaysi vazifasini bajardi?

A)Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash

B)Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni taminlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish

C)Maqsadli ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabning "uslubiy kengashlari" da qatnashish

D)O'zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish

Izoh:

6.1-STANDART. O'QITUVCHI BUTUN UMR DAVOMIDA TA'LIM OLISHNING MUHIMLIGINI TUSHUNADI VA KASBIY RIVOJLANISH UCHUN TURLI IMKONIYATLARDAN FOYDALANADI

Kasbiy ta'limni tugatgandan so'ng, pedagog kasbiy faoliyatni boshlash uchun zarur bo'lgan o'z malakasi va kasbiy vakolatlar darajasini tasdiqlovchi diplom oladi. Shu bilan birga, uning kasbiy rivojlanishi boshlanadi - kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish. O'qituvchi o'z bilimlariga asoslanib, amaliyotdan olingan turli vaziyatlar ustidan doimiy ravishda bosh qotiradi, o'quvchilar bilan samaraliroq ishlash uchun yana qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini baholay oladi. O'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan qiyinchilik va qiyinchiliklar nuqtai nazaridan yangi ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi. Shunday qilib, yangi bilim va ko'nikmalar unga o'z ishida yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Kasbiy rivojlanish uch darajada amalga oshiriladi:

1. Ta'lim tizimi doirasida:

- malaka oshirish tizimida o'qitish, uning natijalariga ko'ra o'qituvchilarning egallab turgan lavozimi va malaka toifasiga muvofiqligini attestatsiyadan o'tkazish tartibi;
- Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkaziladigan turli tanlovlar, seminarlar, konferensiyalarda ishtirok etish.

2. Maktab darajasida:

- tajriba almashish, tajribali o'qituvchilardan o'rganish amalga oshiriladigan metodik birlashmalar ishida, mahorat darslarida faol ishtirok etish;
- hamkasblarning darslariga tashrif buyurish;
- o'zining ochiq darslarini tashkil etish, o'z pedagogik tajribasini umumlashtirish va tarqatish.

3. Shaxsiy daraja - o'qituvchilarning mustaqil ta'limi:

- zamonaviy psixologik-pedagogik usullarni o'rganish;
- pedagogik va uslubiy adabiyotlar bilan tanishish;
- internet resurslaridan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarni yaxshilash;
- nashrlarni yaratish.

O'qituvchining kasbiy malakasini rivojlantirish tizimida uning mustaqil ta'limi alohida o'rin tutadi. O'zini butun umri davomida takomillashtirgan pedagoggina o'qishga o'rgatishi mumkin.

6) Guruhda ishlash jarayonida o'quvchilar o'rtasida shaxsiy kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Bunday vaziyatda o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

A)Kelishmovchiliklarni e'tiborsiz qoldirib, o'quvchilardan mustaqil hal qilishni talab qiladi.

B) Muammoni ochiq muhokama qilib, o'quvchilarni muloqotga chorlaydi va hamkorlik muhitini yaratadi.

C) Kelishmovchilikda aybdorni aniqlab, faqat unga chora ko'radi.

D) Guruh ishini to'xtatib, faqat individual topshiriqlarga o'tadi.

7) O'qituvchi o'quvchilarning bilim saviyasini aniqlash maqsadida text berdi va qayta so'zlab berishlarini aytdi

Quyida o'qituvchi Blum taksonomiyasining qaysi bosqichidan foydalandi

A) Qo'llash

B) Bilish

C) Sintez

D) Tushunish

Izoh:



8) 7 yillik tajribaga ega tarix fani o'qituvchisi o'quvchilarning o'zining faniga nisbatan qiziqishlari kamayib borayotganligini sezib qoldi. bunday vaziyatda o'qituvchi qanday faoliyatni amalga oshirsa samaraliroq bo'ladi

A) o'quvchilar bilan nega aynan shunday bo'layotganligi haqida suhbat o'tkazish

B) bu haqida maktab ma'muriyati bilan suhbatlashish

C) O'z faoliyatini qayta ko'rib chiqib o'quvchilarda qiziqishlar uyg'otish uchun izlanish

D) maktab psixologidan yordam sorash

Izoh: O'qituvchi eng avvalo o'zidagi kamchiliklarni bartaraf qilib o'z ustida ishlaydi. Shunda ham natija bo'lmasa boshqalarga murojaat qilishi mumkin

9) Ingliz tili o'qituvchisi o'quvchilarga tana a'zolar haqida mavzu o'tdi va shu mavzu yuzasidan yangi so'zlarni yodlashga berdi. Ammo keyingi darsda o'quvchilar bu topshiriqni bajarmay kelganliklarinin g guvohi bo'ldi. O'qituvchi bunday vaziyatda qanday yo'l tutadi?

A) so'zlarni qayta takrorlash uchun qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazdi

B) o'quvchilarni bu ishlari uchun qattiq jazoladi

C) topshiriqni yana qaytib bajarishga majburladi

D) O'quvchilar nega topshiriqni bajarmaganliklarining sabalarini izladi

Izoh: O'qituvchi o'quvchilar bilan qo'shimcha shug'ullanadi va so'zlarni takrorlanib yodlatadi

10) Farzandining o'qishlari pasayib borayotganligidan xavotirlanib kelgan ota -ona bilan o'qituvchi qanday faoliyatni amalga oshirishi mumkin?

A) Ularga farzandining bilimi pasayganidan shikoyat qilishi mumkin

B) Ularni maktab psixologi oldiga maslahat olsh uchun yuborishi mumkin

C) Ota-ona bilan suhbatlashib ularga farzandining o'qishlaridagi pasayishlarining aniq sabablarini ko'rsatib berish

D) Vaqti muammo ekanligini aytib suhbatni keyinga qoldirish

11) O'qituvchi loyiha ishini amalga oshirish jarayonida o'quvchilaridan biri boshqalarga nisbatan ustunlik qilayotganini va boshq o'quvchilarga bajarishga biron bir ish qoldirmayotganligini sezib qoldi . Quyida o'qituvchi qanday yo'l tutadi?

A) bu o'quvchini loyiha ishidan chetlatish

B) Unga loyiha ishidan tashqari qiziqarliroq mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun imkon berish

C) Loyiha ishidagi rollarni barcha o'quvchilar saviyasiga mos qilib muqobillashtirish

D) Bu o'quvchiga boshqlarga ham imkon berish kerakligini tushuntirish

Izoh: O'qituvchi loyiha ishini amalga oshirish jarayonida har bir o'quvchi uchun saviyasiga mos rol taqsimlab berishi kerak .

12) O'qituvchi sinfidagi o'zlashtirishi boshqalardan yuqori bo'lgan o'quvchi bilan qanday ishlashi kerak?

A) Uni o'z holiga tashlab qo'yish kerak

B) Bu o'quvchini boshqa o'quvchilar bilan bir xil olib borish kerak

C) O'quvchini maxsus ixtisoslashtirilgan maktabga yuborish kerak

D) O'quvchiga doimiy o'sib borishini chun qo'shimcha topshiriqlar berish kerak

Izoh: o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarni qo'shimcha topshiriqlar bilan yanada rivojlantirish kerak

13) -Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash

-Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish

-Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.

-Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda

-AKTdan foydalanish.

Kasb standartining qaysi sohasiga tegishli

A) Ta'lim samaradorligini oshirish

B) o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

C) o'quv jarayonini rejalashtirish

D) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish

Izoh:

TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASH
(ta'lim dasturini amalga oshirish)

Mehnat harakatlari	<u>Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash</u>
	<u>Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish</u>
	<u>Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.</u>
	<u>Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish.</u>
	<u>O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilish</u>
	<u>O'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarini tanlash</u>
	<u>O'qitishning faol usullaridan foydalanish (frontal ta'lim ustun bo'la olmaydi)</u>
	<u>Umumiy o'rta ta'limning ta'lim standartlarida belgilangan o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish.</u>
	<u>O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish.</u>
	<u>O'quvchilarga metakognitiv strategiyani o'rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalaridan foydalanish (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda)</u>
	<u>O'quvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam berish</u>
	<u>Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'lash</u>
	<u>Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish</u>
	<u>O'quvchilar darsda faol qatnashishini motivatsiyalashda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish</u>
	<u>O'quvchilarni darsga qiziqitirishda turli usullardan foydalanish</u>

14) O'quvchi lug'at yodlashda qiynalayapti. Qanday yo'l tutish eng maqbul hisoblanadi?

A) Har kuni 50 ta yangi so'z yodlashi talab qilinadi

B) So'zlarni yodlashda kartochkalar va kontekstda foydalanish tavsiya qilinadi

C) Faqat darslikdagi so'zlarni yodlashi buyuriladi

D) Yodlay olmagan so'zlar uchun jazo

Izoh:O'quvchining lug'at boyligini oshirish uchun samarali va qiziqarli usullar qo'llanishi kerak.

So'zlarni kartochkalar yordamida, rasm va tarjimasi bilan birga o'rganish, hamda ularni kontekstda – ya'ni jumla ichida ishlatish orqali yodlash samaraliroq bo'ladi. Bu usul so'zlarni eslab qolishni osonlashtiradi va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. Har kuni ko'p so'z yodlash talab etilishi o'quvchini charchatadi va demotivatsiya qiladi. Jazolash esa o'quvchining so'z o'rganishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi.

15) O'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatli holatlarda ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlim yaratish uchun quyidagilardan qaysilarini qilish kerak?

1) Har bir tomonning fikrini hurmat bilan tinglash

2) Ziddiyat sababchisiga bosim o'tkazish va jazolash, O'quvchiga qat'iy chora korilishi kerak

3) Ota-onalarni maktab hayotiga faol jalb qilish

4) Muommoni ochiq muloqot orqali hal qilish

A) 1,2,3

B) 2,,3,4

C)1,3,4

D) 2

Izoh: 1.Bu muhim tamoyildir. Har bir tomon o'zini eshitilgan va qadrlangan deb his qilsa, ziddiyatni yumshatish osonlashadi.

3. Ota-onalar ta'lim jarayonida faol ishtirok etsa, tushunmovchiliklar kamayadi va hamkorlik mustahkamlanadi.

4. Ochiq va samimiy muloqot — ijobiy muhit yaratishning asosiy vositasi. Bu ishonchni oshiradi.

2. Bu salbiy yondashuvdir. Jazolash ziddiyatni yanada kuchaytiradi, ijobiy iqlimga to'sqinlik qiladi.

16) Ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchi dars davomida ba'zida ona tilini (masalan, o'zbek tilini) aralashtirib yuborsa, o'qituvchi qanday yo'l tutishi eng to'g'ri bo'ladi?

A) O'quvchini darhol to'xtatib, faqat ingliz tilida gapirishni talab qiladi

B) O'quvchining xatolarini e'tiborga olmaydi

C) O'quvchini qo'llab-quvvatlab, asta-sekin ingliz tilida fikr bildirishga undaydi

D) Ona tilida gapirgani uchun tanbeh beradi

Izoh: Ingliz tilini o'rganish jarayonida ona tilini aralashtirib yuborish tabiiy holat hisoblanadi, ayniqsa boshlang'ich bosqichda. O'qituvchi bu holatni tushunib, o'quvchiga tazyiq o'tkazmasdan, uni rag'batlantirishi va asta-sekin ingliz tilida ifoda qilishga o'rgatishi kerak. Bu o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini yo'qotmaslikka yordam beradi. To'g'ri yondashuv bu – sabrli va qo'llab-quvvatlovchi bo'lishdir.

17) O'quvchi matnni o'qish jarayonida so'zlarni noto'g'ri talaffuz qildi. O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?

A) o'quvchini toxtatib so'zni to'g'rilab o'qib berishi kerak,

B) matnni tugatgach qaysi jihatida oqsayotgan bolsa tushuntirishi kerak,

C) boshqa o'quvchidan o'qishda davom etishini sorashi kerak

D) o'quvchiga tanbeh berib to'g'irlab o'qitish kerak

Izoh: Bu ham foydali metod. O'quvchining izchil o'qishini buzmaslik uchun avval matnni yakunlashiga ruxsat berib, so'ng analiz qilish yondashuvi. Bu holatda o'quvchining o'qishga bo'lgan ishonchini saqlab qolishga yordam beradi. Bu yondashuv didaktik jihatdan eng yumshoq va samarali bo'lib, o'quvchining motivatsiyasini saqlab qolishga yordam beradi.

18) O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.

Quyida nizolarni hal qilishning qaysi strategiyasi haqida gap ketmoqda?

A) Muzokaralar

B) Mediatsiya

C) Arbitaj

D) A va B

Izoh:

Maktabda nizoli vaziyat yuzaga kelganda, uni xotirjam, real, buzmasdan qarash muhimdir. Nizolarni hal qilishning uchta strategiyasi mavjud.

1. **Arbitraj.** Bunday holda, o'qituvchi vaziyatni o'rganish asosida "qaror qabul qiladigan" «hakam» rolini o'z zimmasiga oladi. U o'quvchilarga qanday qilib yarashish kerakligini, ya'ni kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi kerakligini aytadi. Maktabdagi nizolar bo'lsa, o'qituvchi ko'pincha hakam rolini o'z zimmasiga oladi.
2. **Muzokaralar.** O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.
3. **Mediatsiya.** O'quvchilar nizoni o'zlari qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam beradigan, his-tuyg'ular darajasini pasaytiradigan va yakuniy qarorni qabul qiladigan vositachi yordamida ta'minlanishi mumkin. O'qituvchi vositachi bo'lishi qiyin, chunki vositachi nizoda xolis va befarq bo'lishi kerak. Bu vazifani maktab psixologi yoki nizoga aloqador bo'lmagan boshqa o'qituvchi bajarishi mumkin.

Har bir o'qituvchi maktabda nizolarning oldini olish va yuzaga kelgan taqdirda ularni samarali boshqarish uchun ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi nizosiz muloqot tamoyillarini bilish va amalga oshirish kerak: mulohaza yuritmasdan

19) Moslashtiring

1. Arbitraj

2. Mediatsiya

a) O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.

b) Bunday holda, o'qituvchi vaziyatni o'rganish asosida "qaror qabul qiladigan" «hakam» rolini o'z zimmasiga oladi. U o'quvchilarga qanday qilib yarashish kerakligini, ya'ni kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi kerakligini aytadi. Maktabdagi nizolar bo'lsa, o'qituvchi ko'pincha hakam rolini o'z zimmasiga oladi.

c) O'quvchilar nizoni o'zlari qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam beradigan, his-tuyg'ular darajasini pasaytiradigan va yakuniy qarorni qabul qiladigan vositachi yordamida ta'minlanishi mumkin.

A)1-b,2-c

B)1-a,2-c

C)1-b,2-a

D)1-c,2-b

Izoh:

5.1.3-KO'RSATKICH. NIZOLI VAZIYATLARNI ETARLI DARAJADA HAL QILADI

Har qanday ijtimoiy muhitda bo'lgani kabi maktabda ham murakkab vaziyatlar va nizolar paydo bo'ladi. O'qituvchilar murakkab vaziyatlarda harakat qilishning yagona modelariga ega bo'lishlari kerak.

Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlash uchun maktab / o'qituvchilar maktabda o'zini tutish qoidalarini tuzadi va o'quvchilarga tushuntiradi. O'qituvchilar ushbu qoidalarga rioya qilishni doimiy ravishda kuzatib boradilar, agar ular buzilgan bo'lsa, darhol javob harakat qilishadi. Shunda o'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qiladilar va maktab qoidalari ular uchun mo'ljallanganligini va ularni himoya qilishini bilishadi.

O'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchining muhim vazifasi – bu ularning nizolarni zo'ravonliksiz hal qilishga o'rgatishdir.

Maktabda nizoli vaziyat yuzaga kelganda, uni xotirjam, real, buzmasdan qarash muhimdir. Nizolarni hal qilishning uchta strategiyasi mavjud.

1. **Arbitraj.** Bunday holda, o'qituvchi vaziyatni o'rganish asosida "qaror qabul qiladigan" «hakam» rolini o'z zimmasiga oladi. U o'quvchilarga qanday qilib yarashish kerakligini, ya'ni kim nima qilishi va kelajakda o'zini qanday tutishi kerakligini aytadi. Maktabdagi nizolar bo'lsa, o'qituvchi ko'pincha hakam rolini o'z zimmasiga oladi.
2. **Muzokaralar.** O'qituvchi nizoning sabablarini tushunishga yordam beradi va o'quvchilarga kelishmovchilikni hal qilish yo'llari bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.
3. **Mediatsiya.** O'quvchilar nizoni o'zlari qanday hal qilishni bilmasalar, ular muloqotga xolis yordam beradigan, his-tuyg'ular darajasini pasaytiradigan va yakuniy qarorni qabul qiladigan vositachi yordamida ta'minlanishi mumkin. O'qituvchi vositachi bo'lishi qiyin, chunki vositachi nizoda xolis va befarq bo'lishi kerak. Bu vazifani maktab psixologi yoki nizoga aloqador bo'lmagan boshqa o'qituvchi bajarishi mumkin.

Har bir o'qituvchi maktabda nizolarning oldini olish va yuzaga kelgan taqdirda ularni samarali boshqarish uchun ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi nizosiz muloqot tamoyillarini bilish va amalga oshirish kerak: mulohaza yuritmasdan muloqot qiling - boshqalarga «yorliq»ni osib qo'ymaslik va o'zingizga teg qo'yishga yo'l qo'ymang; o'zingizga nisbatan ham, siz tomondan ham muloqotda manipulyatsiyadan qochish; qarama-qarshilikka emas, hamkorlikka yo'naltirilganlik.

Paydo bo'ladigan nizolarning sabablarini ko'rish juda muhimdir. Ba'zida tartib-

20) Bolalarning madaniy tafovutlari, jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim faoliyatini tashkil qilish

Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish

Quyida kasb standartining qaysi sohasiga tegishli zarur ko'nikmalar berilgan?

A) O'quv jarayonini rejalashtirish

B) Ta'lim samaradorligini oshirish

C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

Izoh:

TARBIYAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Mehnat harakatlari	O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shadigan ta'lim maqsadlari va vazifalarini belgilash.
	Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot va sinfdan tashqari ishlarida qo'llash
	Tarbiya ishlarni olib borishda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olish.
	Bolaning emotsional-qadriyatli sohasini rivojlantiradigan vaziyatlar va hodisalarni loyihalashtirish (bolaning ta'sirchanlik madaniyati va qadriyatlarining yo'nalishlarini)
	Ta'lim muassasaning ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini belgilash va o'rnatish
	O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo'llab-quvvatlash
	Ta'lim muassasaning imkoniyatlarini, yashash joyi va mintaqaning tarixiy-madaniy o'ziga xosligini hisobga olgan holda sinfdan tashqari ishlarning har xil turlarini: o'yin, o'quv-tadqiqot, badiiy va samarali, madaniy va bo'sh vaqtlarini tashkil etish
	Ziddiyatlarni hal qilish, sinfda va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobiy muhit yaratishda muloqot o'tkazish
	O'zgaruvchan ko'p madaniyatli muhitda o'quvchilarda bag'rikenglik, odob-axloq va hayotga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish
Zarur ko'nikmalar	O'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish
	Bolalarning madaniy tafovutlari, jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim faoliyatini tashkil qilish
	Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish
	O'quvchilarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb qilish, ularning o'quv va bilim faoliyatiga qiziqtirish maqsadida o'quv guruhlarini boshqarish
	Bolalar jamoasida ishbilarmonlik, do'stona muhitni qo'llab-quvvatlash
Zarur ko'nikmalar	O'quvchilarning qadr-qimmati va manfaatlarini himoya qilish, ziddiyatli vaziyatda va / yoki noqulay sharoitlarda bo'lgan bolalarga yordam berish

21) Moslashtiring.

1. O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O‘SISH

2. HAMKASBLAR VA TA‘LIM

OLUVCHILARNING OTA-ONALARI (ULARNING O‘RNINI BOSUVCHI SHAXSLAR) BILAN HAMKORLI

a) Jamoada ishlash Kasbiy muammolarni hamkorlikda hal qilish uchun boshqa o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish

b) O‘zining ta‘lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay olish O‘zining ish amaliyotida kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish

c) O‘quvchilarga turli xil tahdidlarning mohiyati, favqulodda vaziyatlarda protseduralarning mazmuni va harakatlar ketma ketligini tushuntirish O‘quvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan aniq ko‘rsatmalar berish orqali sinf(guruh)dagi o‘quvchilar faoliyatini boshqarish

A) 1-a,2-b,

B) 1-b,2-a

C) 1-c,2-a

D) 1-b,2-c

Izoh:

MEHNAT VAZIFALARI TAVSIFI

(Kasbiy rivojlanish va hamkorlik yo‘nalishida)

O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH VA KASBIY O‘SISH

Mehnat harakatlari	Muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tish
	U doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash
	Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish
	Maqsadi ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo‘lgan maktabning “uslubiy kengashlari”da qatnashish
	O‘zaro darslarda qatnashish, ularni tahlil qilish, undan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish
	O‘z tajribasini namoyish etish uchun ochiq darslarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish
	O‘zining ta‘lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay olish
	O‘zining ish amaliyotida kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish

Zarur ko‘nikmalar	O‘zingizning kasbiy o‘sishi, shu jumladan o‘z-o‘zini rivojlanish yo‘lini aniqlash
	O‘zining ta‘lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo‘nalishlarni aniqlash
	Kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish
	Faoliyatida chet tilidan foydalanish (zaruriyat bo‘lganda)

Zarur bilimlar	O‘z-o‘zini baholash jarayoni, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash
	O‘zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish
	AKT texnologiyalari
	Xorijiy til
	Nutq madaniyati

HAMKASBLAR VA TA'LIM OLUVCHILARNING OTA-ONALARI (ULARNING O'RNINI BOSUVCHI SHAXSLAR) BILAN HAMKORLIK

Mehnat harakatlari	O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga jalb qilish
	O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) sinf va maktab hayotiga jalb qilish
	O'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb qilish
	O'quvchining individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish va to'g'rilash uchun o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ta'lim natijalarining barcha turlariga (fan, meta-mavzu va shaxsiy) erishish vazifalariga muvofiq ravishda hamkorlik qilish
	Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish

Zarur ko'nikmalar	Jamoadi ishlash
	Kasbiy muammolarni hamkorlikda hal qilish uchun boshqa o'qituvchilar va o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish
	Turli xil muhitda har xil emotsional holatlardagi odamlar bilan aloqa qila bilish
	Mahalliy hamjamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini anglash va o'quvchilar manfaati uchun hamkorlik qilish

Zarur bilimlar	Samarali ijtimoiy muloqot asoslari
	Hamkorlikning shakl va usullari, individual va jamoaviy ishlash xususiyatlari

Jamoa va ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) bilan hamkorlik qilish ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilish strategiyasini yaratish va bolalarning o'qishi va farovonligini oshirish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlarni rejalashtirish bo'yicha kompetensiyalar majmuini o'z ichiga oladi.

22) Kasb standartinig o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish sohasiga tegishli zarur bilimlarni ko'rsating.

- 1.O'z-o'zini baholash jarayoni, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash
- 2.O'zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish
- 3.AKT texnologiyalari
- 4.Xorijiy til
- 5.Nutq madaniyati

Ta'lim muassasalarida mehnat gigiyena qoidalar

A)1,3,5,6

B) 1,4,6

C)1,2,3,4,5

D)1,2,3,4,5,6

Izoh:

Zarur ko'nikmalar	O'zingizning kasbiy o'sishi, shu jumladan o'z-o'zini rivojlanish yo'lini aniqlash
	O'zining ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash
	Kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish
	Faoliyatida chet tilidan foydalanish (zaruriyat bo'lganda)

Zarur bilimlar	O'z-o'zini baholash jarayoni, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash
	O'zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish
	AKT texnologiyalari
	Xorijiy til
	Nutq madaniyati

O'z-o'zini takomillashtirish va kasbiy rivojlanish o'zini o'zi baholash va kasbiy o'sishni

23) Kasbiy standartining o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish sohasiga tegishli ma'lumotlarni moslashtiring.

1. Zarur ko'nikmalar

2. Zarur bilimlar

a) O'zining ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash Kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish

b) O'zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish AKT texnologiyalari

c) O'zining ta'lim faoliyatini (kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholash va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay olish O'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish

A)1-c,2-a

B)1-a,2-b

C)1-b,2-a

D)1-a,2-c

Izoh:

Zarur ko'nikmalar	O'zingizning kasbiy o'sishi, shu jumladan o'z-o'zini rivojlanish yo'lini aniqlash
	O'zining ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash, modifikatsiyani talab qiladigan yo'nalishlarni aniqlash
	Kasbiy rivojlanishida AKT muhitidan foydalanish
	Faoliyatida chet tilidan foydalanish (zaruriyat bo'lganda)

Zarur bilimlar	O'z-o'zini baholash jarayoni, kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash
	O'zining kasbiy rivojlanishini rejalashtirish
	AKT texnologiyalari
	Xorijiy til
	Nutq madaniyati

24) O'qituvchi dars jarayoni uchun aniq maqsadlar, shakllar va usullarini ishlab chiqadi. Dars vaqtidan oqilaona foydalanish va darsda qanday tarqatma materiallardan foydalanish uchun aniq maqsadlar qo'yadi.

Quyida o'qituvchi kasb standartining qaysi sohasiga amal qilmoqda?

A) Ta'lim samaradorligini ta'minlash

B) O'quv jarayonini rejalashtirish

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

Izoh:

MEHNAT VAZIFALARI TAVSIFI
(Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish yo'nalishida) O'QUV

JARAYONINI REJALASHTIRISH

Mehnat harakatlari	<u>Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish</u>
	<u>O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturini moslashtirish (agar kerak bo'lsa)</u>
	<u>O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining korrelyatsiya va integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish.</u>
	<u>O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga inobatga olgan holda, darsning aniq va o'lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqish.</u>
	<u>Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish.</u>
	<u>Tegishli o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish.</u>
	<u>Dars jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalar integratsiyasini rejalashtirish.</u>
	<u>Ta'limning aniq va o'lchanadigan natijalarini, shuningdek ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil, chorak, dars) uchun vazifalarni aniqlash va ularni</u>

25) O'qituvchi o'z darslarida hamisha AKT dan foydalanadi, darslar tushunarli bo'lishi uchun turli xil didaktik vosidalarini samarali qo'llaydi, turli xil interfaol metodlarni o'rganib chiqib doimiy ulardan foydalanadi.

Quyida o'qituvchi kasb standartining qaysi sohasiga amal qilmoqda?

A) Ta'lim samaradorligini ta'minlash

B) O'quv jarayonini rejalashtirish

C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

Izoh:

Mehnat harakatlari	<u>Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash</u>
	Dars mavzusiga mos keladigan namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish
	Darsda vaqtdan oqilona foydalanish.
	<u>Ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash va ta'limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish.</u>
	<u>O'quvchilar bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlar asosida darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilish</u>
	<u>O'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarini tanlash</u>
	<u>O'qitishning faol usullaridan foydalanish (frontal ta'lim ustun bo'la olmaydi)</u>
	Umumiy o'rta ta'limning ta'lim standartlarida belgilangan o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish.
	O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish.
	O'quvchilarga metakognitiv strategiyani o'rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan rejalashtirish, nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalaridan foydalanish (kognitiv nosozliklarni inobatga olgan holda)
	O'quvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam berish
	Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'lash
	<u>Dars davomida har bir o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish</u>

26) O'qituvchi darslarida hamisha baholashning yangicha usullarini qo'llaydi. Aksariyat yangi bilimlar berishdan oldin bu mavzu yuzasidan o'quvchilarga savollar berib o'tadi. Qaysi mavzuga qanday metod qo'llashini, o'quvchilariga bu usulda o'zlashtirish qanday natija berishini oldingi tahlillari asosida aniqlaydi.

Quyida o'qituvchi kasb standartining qaysi sohasiga amal qilmoqda?

A) Ta'lim samaradorligini ta'minlash

B) O'quv jarayonini rejalashtirish

C) O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani ta'minlash

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

Izoh:

O'ZLASHTIRISHNI BAHOLASH VA QAYTA ALOQANI TAQDIM ETISH

Mehnat harakatlari	Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish
	Ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish
	O'quvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam / tizimli ravishda kuzatib borish
	O'quvchilar erishgan yutuqlarni natijalarini tahlil qilish
	Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish
	O'quvchining yutuqlarini baholash, baho asoslab berish
	O'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni o'qishni davom ettirishga qiziqtirish
	O'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarini kuzatish va qayd etish
	Ushbu sinf(guruh)da dars beradigan hamkasblari bilan muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida maslahatlashish
	Muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish
Zarur ko'nikmalar	O'quvchilarning rivojlanish ishlarini rag'batlantirishdagi baholash va baholash jarayonining turli usullaridan foydalanishni
	Diagnostik va baholash testlarining har xil turlarini ishlab chiqishni.
	O'quvchilarning turli xil ehtiyojlari va qobiliyatlari bilan bog'liq holda baholash usullarini shaxsga yo'naltirish
	O'qitish metodikasi va amaliyotini moslashtirishda o'quvchilarning baholanishiga oid ma'lumotlarini talqin qilish
	O'quvchilarga va ota-onalar(ularning o'rni bosuvchi shaxslar)ga ta'lim va baholash natijalari to'g'risida qayta aloqani o'rnatish uchun turli xil strategiyalardan foydalanish
Zarur bilimlar	Baholashning zamonaviy nazariyalari, baholash usullari va ularning o'quvchiga ta'sirini
	O'quvchilarning turli xil ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, diagnostika va baholash testlarini tuzish va o'tkazish qoidalarini